

OLIY TA`LIM MUASSASALARI TALABALARIGA BOSHQARUV KOMPETENTSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Mavlonova Baxtigul Saidovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch-doktoranti (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola Ta'lim muassasalarida boshqaruv usul va uslublarini takomillashtirish haqida bo'lib mavzu yuzasidan tadqiqotchi olimlarning fikr va mulohazalari chuqur o'r ganib chiqildi. Hozirgi axborot texnologiyalar davrida innovatsion va electron dasturlardan foydalanish nafaqat IT sohasida, balki ta'lim tizimida ham o'z o'rnnini topib bormoqda. Pedagogika ta'lim muassasalarining yagona axborot makonini joriy etilishi pedagogik ta'limning sifatini va axborot ta'minotini rivojlanishiga yaxshi sharoit yaratib beradi.

Kalit so'zlar: interfaol muloqot, pedagogik dasturiy vositalar, kommunikatsion xizmat, pedagogik qobiliyat, yaratuvchanlik, innovatsion metodlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, web-texnologiyalar.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan oliy ta'lim sohasi bo'yicha o'rtaga quyilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchi shaxsiga bog'liq [Mirziyoyev, 2017: 47]. O'qituvchilik sharaflı, lekin juda murakkab kasbdır. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ta'limtarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish, talabalarning xilma xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviysi, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigma yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiyl qonun-qoidalar, tamoyillar, umumlashtirilgan metodik g'oyalar bayon etiladi, talabalarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi [Mirziyoyev, 2017: 485]. Universitet hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xil, murakkabdir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ko'p uchrab turadi. Bu esa o'qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik va yuksak pedagogik mahorat hamda ijodkorlikni talab etadi. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy va ruhiy xislatlari, puxta tayyorgarlik, ayrim shaxsiy sifatlar bo'lishi kerak. Pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq va asablari joyida bo'lishi, boshqalar bilan muomalada o'zini tuta olishi zarur.

Shuningdek, o'qituvchida talabalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomalalik, kuzatuvchanlik, keng fikrlay olish, tashkilotchilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjud bo'lishi zarurdir [Aleks Muur, 2012: 202].

2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)
<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Texnologiyaning rivojlanishi bilan texnik vositalardan foydalanib o'qitish uchun birgina kompyuterning mavjudligi kifoya bo'lib qoldi. Qolaversa, axborotni uzatish, International scientific-practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages" saqlash, tasvirlash sifati sezilarli darajada ortdi. Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, kelajakda esa u har bir insonga qayerda, qaysi uchastkada ishlamasin zaruratga aylanadi. Demak, kompyuter ishi, kompyuterdan foydalanishga o'rgatish eng yaqin vaqt ichida umumiy ishga aylanishi shubhasiz [Mirziyoyev, 2017: 29].

Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videokamera, LCD proyektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet tarmoqalari, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun'iy intelekt tizimlarini kiritish mumkin.

O'quv-tarbiya jarayonida kompyuterlar asosan to'rt tartibda:

- ✓ passiv qo'llash - kompyuter oddiy hisoblagich kabi;
- ✓ reaktiv muloqot - kompyuter imtihon oluvchi sifatida;
- ✓ faol muloqot - kompyuter talabaga yo'l - yo'riq berish va imtihon olishda;
- ✓ interfaol muloqot - kompyuter sun'iy intellekt sifatida, ya'ni talaba bilan muloqot qilishda foydalaniladi.

Ta'lilda zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- ✓ fan sohalarini axborotlashtirishni;
- ✓ o'quv faoliyatni intellektuallashtirishni;
- ✓ integrasiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;
- ✓ ta'lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birlashuvini;
- pedagoglar o'tasida vazifalarning taqsimlanishini;
- ta'lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonlariga joriy etilishi:

- talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;
- o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqr o'zlashtirilishiga;
- o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyaliashtirishga;

2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

- sun'iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarini kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faoliyikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik dasturiy vositalar tushunchasi

Pedagogik dasturiy vositalar - kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlataladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga:

o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin: ^ o'rgatuvchi dasturlar - o'quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;

- test dasturlari - egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;
- mashq qildiruvchi (trenejyor)lar - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- virtual borliq tizimlari - o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

Pedagogik faoliyatda amaliy va pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish. Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobjiy o'millar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratildi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi:

- ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya,
- informatikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning International scientific-practical
- conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign
- languages" fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini
- ta'minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda
- to'diruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish
- mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish
- mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma'lum bir faning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqliligi, o'zaro aloqadorliligi, turli tumanligi, amalga oshirilishi.

2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqati (qat'iyiligi, boshqaga ko'chishi), motivasiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa yordamida o'quvchilarning yuqori darajadagi motivasiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasi talabalarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi.

Texnik talablarga zamonaviy universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalari, test o'tkaziladigan manbalar kiradi.

Tarmoq talablariga "mijoz-server" arxitekturasi, Internet-navigatorlar, tarmoq operasion tizimlari, telekommunikasiya, boshqaruv vositalari (o'qitish jarayonini individual va jamoaviy ishlari, tashqi qayta aloqa) kiradi.

Estetik talablarga quydagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o'lchami, rangi), bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi. Maxsus talablarga quydagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko'rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differensiasiyalash (tabaqlashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funksionalilik, ishonchlilik. Ergonomik talablarga quydagilar kiradi: do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

Metodik talablar pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini, izlanish metodlari, axborotga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko'zda tutadi. Internet resurslaridan ta'lim jarayonida foydalanish O'quv jarayonlarida Web-saytlardan foydalanishning ko'pgina yutuqlari mavjud. Shu bois bunday saytlarni yaratish va mazmunan yangilab boorish oliv ta'lim muassasasi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan o'quv muassasalari uchun bag'ishlangan saytlarni yaratish har bir ta'lim muassasasi oldida turgan birlamchi vazifalar qatoriga kiradi. Bunday saytlarni yararish uni o'rganish mobaynida internet tizimi bilan bog'liq omillarni hisobga olish lozim. Bunday omillar sifatida quydagilarni ko'rsatish mumkin:

- ✓ dunyo bo'yicha internet xizmati imkoniyatlarining kengligi;
- ✓ web-saytlar xizmatidan foydalanishning oddiyligi;
- ✓ web-tehnologiyalarni tarqatishdagi qulaylik;
- ✓ real vaqt masshtabida axborotlarga bo'lgan talablar;
- ✓ muassasa va xususiy shaxslarning o'zlari to'g'risidagi axborotlarni internetga joylashtirishga intilishi;
- ✓ tarmoq ma'lumotlar bazasida global mashstabdagi ixtiyoriy ma'lumotlarni to'plash [Toxtaxodjayeva, 2010].

O'quv muassasasi uchun yaratilgan saytlarning ahamiyati Internet texnologiyalarining imkoniyatlari kengligi va sodda ekanligi internetdan foydalanuvchilarning daqiqa sayin ortib borishiga olib kelmoqda. Bu foydalanuvchilar orasida ko'pchilik qismini albatta, talabalar, o'quvchilar, ilmiy izlanish bilan band bo'lgan xodimlar tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida Internet texnologiyalaridan, xususan o'quv muassasalariga bag'ishlangan web-saytlardan

2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

foydanish ta'lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada yuqori bosqichga olib chiqishga yordam beradi.

Yangi axborot texnologiyalar vositalari takomillashib va rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda o'quv muassasasida tahsil olayotgan talabalarning (umuman har qanday sohada faoliyat ko'rsatuvchilarning) zarur axborotlarni Internet tizimidan mustaqil ravishda topa olishi, ular duch keladigan mavjud mutaxassisligiga oid muammolarni to'la va to'g'ri hal qila olishidagi muhim sharoitlardan biriga aylanib bormoqda [Karimov, 2008: 148]. Ta'lim jarayonida Internet saytlaridan foydanish imkoniyatlarini, uning samaradorligini aniqlashda avval Internet xizmatining turlari va ularning xarakterini aniqlab olish nihoyatda muhimdir. Aynan ana shu aniqlangan ma'lumotlar Internet tarmog'ida ishlashning tashkiliy jihatdan shakli va usullarini ajratib olishga yordam beradi. Klassifikasiyalashga asos qilib internetning ishlash uslubini olish mumkin. Bu holda Internet server xizmatlarini ikkiga: axborotli va kommunikasion xizmat turlariga ajratish kerak.

Axborotli xizmatga WWW (ma'lumotlar majmuasi) va G'TR (dasturlar majmuasi) lar kiritiladi.

Kommunikasion xizmatni esa ikkiga: bevosita (PC, chat) va bilvosita muloqot (elektronpochta, forum, telekonferensiya) turlariga ajratish mumkin. Internetdagi barcha "o'quv muassasa uchun yaratilgan sayt" larni o'z navbatida bir necha turga ajratish mumkin:

- ✓ o'rgatuvchi internet manbalari;
- ✓ maslahat beruvchi internet manbalari;
- ✓ axborotli internet manbalari;
- ✓ baholovchi internet manbalari;
- ✓ taqdimotli internet manbalari;

Quyida ularning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz. O'rgatuvchi internet manbalariga masofaviy ta'lim, virtual maktablar, laboratoriylar va web sinflarni misol sifatida keltirish mumkin. Maslahat beruvchi internet manbalariga turli telekonferensiylar, virtual pedagogic kengashlar, virtual uslubiy, birlashmalar muammoiy kengashlar, virtual kafelar va hokazolarni misol keltirish mumkin.

Axborotli internet manbalariga elektron o'quv qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, electron kutubxonalar, lug'atlar, kataloglar, virtual muzeylarni keltirish mumkin.

Baholovchi internet manbalarga teletesting, masofaviy konkurslar, turli viktorinalar, olimpiadalarni misol keltirish mumkin. Taqdimotli internet manbalariga ta'lim muassasalarining ta'lim yo'nalishlari haqida atroflicha ma'lumotlar yoritilgan alohida sahifalarini keltirish mumkin [Egamberdiyeva, 2009].

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o'qituvchilar ta'lim oluvchilarga masofadan turgan holda bilim olishlariga imkon yaratadilar. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar ayniqsa o'qitish joylariga qatnashi qiyin bo'lgan ta'lim oluvchilarga qulaydir. Bularidan tashqari ta'lim oluvchilar axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyati, ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan dars jarayonida foydanish juda katta imkoniyatlar yaratadi. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o'qitish, o'quv jarayonini a'nanaxiy tashkil etishning asosiy shakllarini o'z ichiga oladi. Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya amaliyoti, nazorat tizimi, tinglovchilarning ilmiy tadqiqot va mustaqil ishlari shular jumlasidandir. O'quv jarayonini tashkil etishning ushbu barcha shakllari amaliyotda tinglovchilarni mustaqil bilish faoliyati turli axborot manbalari bilan osongina birlashtirishni, kurs

2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)
<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

olib borayotgan o'qituvchi bilan tezkor va tizimli aloqa qilish hamda tinglovchilarning guruh bo'lib ishlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi [Hasanboyev, 2011].

XULOSA

Yuqoridagidan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, o'quv muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar ayniqsa, informatika o'qituvchilari hamda o'quv muassasasi talabalarini orasida qiziqishi katta bo'lgan talabalar birgalikda ushbu o'quv muassasasining saytini yaratish, mazmunini yangilab borishda muhim ishtirokchilar hisoblanadilar. Shularni inobatga olgan holda yuqorida oliy ta'lim jarayonida innovatsion o'qitish usullari va interaktiv go'yalar asosida o'quv jarayonlarini samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan fikr mulohazalar ko'rib chiqildi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega.

Afzalliklari:

vaqt va pulni tejash; masofaviy ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish;

o'qituvchilarning elektron kitob va kurslarni tayyorlashni takomillashtirish;

kasal bo'lish xavfini kamaytirish;

talabalarning bilim olishlari uchun teng imkoniyatlar yaratilishidir. Kamchiliklari:

individual ishslash qiyinchiliklari;

bilimlarni baholashning murakkabligi;

ilmiy tadqiqot faoliyatining pasayishi;

talabalar o'rtaсидagi texnologik tengsizlik; talabalar bilan bevosa aloqaning yo'qligi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, o'z fanini innovatsion yondoshuv asosida o'qitishni, interaktiv usul va vositalardan unumli foydalanishi, fanning muhim muommolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini talabalarga yetkaza olishi va nihoyat talabalarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi avvalo axborot texnologiyalari malakalarini egallashi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aleks Muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya. -Rutledj. Ikkinci nashr. 2012. 202-bet.
2. Egamberdiyeva N.M. "Ijtimoiy pedagogika"- T.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009 y.
3. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika. -T.:2011 y. Noshir nashriyoti.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat - yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'nnaviyat", 2008.
5. Mavlanova R. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi va tarixi.- T.: 2010 y. "Fan va texnologiya" nashriyoti. 461 bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 485 bet.
7. Usmonov M. T. Information Security Policy. International Journal of Academic

2023: International Conference on Research Identity,
Value and Ethics (USA)

<https://conferenceseries.info/index.php/ICRIVE/issue/view/13>

8. Pedagogical Research (IJAPR) ISSN: 2643-9123 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 70-73.
9. Usmonov M. T. Information War. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR) ISSN: 2643-9603 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 79-82.
10. Usmonov M. T. International and National Legal Base in the Field Of Information Security. International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) ISSN: 2643-9123 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 7-14.
11. Usmonov M. T. Legal Legislative Basis for Detection of Information Crime. International Journal of Academic Engineering Research (IJAER) ISSN: 2643-9085 Vol. 5 Issue 1, January - 2021, Pages: 80-87.